TILSHUNOSLIK

UDK: 811.512.133`367 **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss2/a101**

TO‘SIQSIZLIK MUNOSABATINING JAHON TILSHUNOSLIGIDA O‘RGANILISHI

ИЗУЧЕНИЕ ОТНОШЕНИЯ УСТУПИТЕЛЬНОСТИ В МИРОВОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

STUDY OF CONCESSION IN WORLD LINGVISTICS

Rasulova Azizaxon Muydinovna[1]

[1]**Rasulova Azizaxon Muydinovna** – Farg‘ona davlat universiteti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Annotatsiya

Berilgan maqolada keyingi yillarda jahon tilshunosligida yaratilgan lingvistik maydon xususidagi qarashlar tahlili, maydon sifatida qaraluvchi hodisalar talqini. to‘siqsizlik munosabati, jahon tilshunosligida uning o‘rganilishi, dunyo olimlari tomonidan mazkur munosabatning ifodalanishi bo‘yicha qilingan tadqiqotlar haqida fikr yuritiladi. Aniq to‘siqsizlik, taxminiy to‘siqsizlik, kuchaytirilgan to‘siqsizlikning R.M.Teremova tadqiqotlarida yoritilishi berilgan, shuningdek, O.A.Lavrova, V.Y.Apresyan, G.A.Musatova tadqiqotlariga ham murojaat qilinadi. Ishda yuqorida nomlari keltirilgan olimlarning ishlari tahlil qilingan, to‘siqsizlik ma’nosining ilmiy asarlarda berilishi, to‘siqsizlik haqidagi fikrlar xulosalangan.

Аннотация

В данной статье проводится анализ взглядов на языковой поле, сложившихся в последние годы в мировой лингвистике, интерпретация явлений, рассматриваемых как поле. Обсуждается установка уступительности, ее изучение в мировой лингвистике, исследования мировых ученых по выражению этой установки. Точная уступительность, приблизительная уступительность и повышенная уступительность объясняются в исследованиях Р.М.Теремовой, а также упоминаются исследования О.А.Лавровой, В.Ю.Апресяна, Г.А.Мусатовой. В работе были проанализированы труды вышеупомянутых ученых, дано значение уступительности в научных трудах, а также обобщены мнения о уступительности.

Abstract

The given article discusses the analysis of viyews on the linguistic field created in resent years in world linguistics, the interpretation of phenomena considered as a field, the relation of non-obstacle, studing in world linguistics, and the researches made by world scientists on the expression of this relation. Exact unobstructedness, approximate unobstructedness, and enhanced unobstructedness are explained in the researches of R.M. Teremova, and the researches of O.A. Lavrova, V.Y. Apresyan, G.A. Musatova are also referred to. In the work, the works of the above-mentioned scientists were analyzed, the meaning of non-obstacles was given in scientific works, and opinions about non-obstacles were summarized.

Kalit so‘zlar: *maydon, to‘siqsizlik, sema, ziddiyat, aniq-to‘siqsizlik, taxminiy to‘siqsizlik, kuchaytirilgan to‘siqsizlik, mikromaydon, to‘siqsizlik maydoni.*

Ключевые слова: *поле, уступительность, сема, противоречие, точная уступительность, приблизительная уступительность, повышенная уступительность, микрополе, поле уступительности.*

Key words: *field, concession, seme, contradiction, exact concession, approximate concession, increased concession, microfield, concession field.*

KIRISH

Jahon tilshunosligida so‘nggi yillarda yaratilgan lingvistik maydon xususidagi qarashlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, maydon sifatida qaraluvchi hodisalarning turli-tuman tarzdagi talqinlari mavjud. Bu ishlarning har birida sememalarning bir arxisemaga umumlashishi, turli integral semalar ostida guruhlanishi va differensial semalar bilan o‘ziga xoslanishi izchil holda tadqiq etilgan. To‘siqsizlik munosabatini bildiruvchi birliklarni maydon asosida tadqiq etish uning lingvistik xususiyatlarini yaqqol namoyon etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

«To‘siqsizlik» termini lotin grammatikasida ham ishlatilgan bo‘lib, XIX asrgacha notiqlik an’anasiga yaqin bo‘lganligi, qandaydir ma’no yoki ma’nolar yig‘indisi sifatida emas, balki notiqlik shakli sifatida izohlanganligi ko‘rsatilgan. Didro o‘z ensiklopediyasida lotin grammatikasidagi fikrlardan kelib chiqib, to‘siqsizlikka quyidagicha ta’rif bergan: «To‘siqsizlik o‘zining haqligiga ishongan notiqning ustunlikni qo‘lga olish maqsadida yoki uni to‘xtatib qolishi mumkin bo‘lgan keraksiz qarshiliklarning oldini olish uchun muxolif (opponent)ning fikriga qisman roziligini ko‘rsatuvchi nutq shaklidir» [1;86].

To‘siqsizlik haqidagi fikrlar M.V.Lomonosov ishlarida ham uchraydi. Shu bilan birga, to‘siqsizlik notiqlikning bir ko‘rinishi sifatida har doim ham to‘siqsizlik bildiruvchi bog‘lovchilar,

ko‘makchilar va shu kabi leksik yoki grammatik vositalar orqali ifodalanmagan. M.V.Lomonosov keltirgan to‘rt misoldan ikkitasida to‘siqsizlikni bildiruvchi vositalar uchraydi, qolgan ikkitasida «to‘siqsizlik yoki iqror bo‘lish» ma’nosi matnga nisbatan olingan [5;275].

XX asrga kelib to‘siqsizlik lingvistik tushuncha sifatida e’tirof etila boshlandi. Bu fransuz tilshunosligida, xususan, Morel asarlarida ko‘rinadi. Unda to‘siqsizlik munosabati aslida bir-biridan farqlanuvchi ikki voqeaning yaqinlashuvidan iborat bo‘lgan ziddiyat sifatida belgilangan. Bu konsepsiya to‘siqsizlik munosabatining ma’lum bir til birliklari – leksemalar va konstruksiyalar asosida ifodalanishini ko‘zda tutadi. Shuningdek, «rus tili grammatikasi»da to‘siqsizlikka shunga o‘xshash ta’rif berilgan bo‘lib, unda to‘siqsiz ergash gapli qo‘shma gaplar va to‘siqsizlik bog‘lovchilari nazarda tutiladi: «Qo‘shma gaplarda bosh gap ergash gapdan kutilayotgan natijaga qarama-qarshi aytilayotgan voqea haqidagi ma’lumotni o‘zida saqlaydi» [3;337]. To‘siqsizlikni bildiruvchi gaplarni ba’zi tadqiqotchilar sabab ergash gaplar qatoriga qo‘shsalar, boshqalari shart ergash gaplarning ko‘rinishlari, deb hisoblaydilar, uchinchi guruh tadqiqotchilar esa to‘siqsiz va zid munosabatli gaplarning o‘xshashligini ta’kidlaydilar.

To‘siqsiz sintaktik qurilmalar bog‘lanish va ergashish elementlarini o‘zida aks ettiradi. Bunday gaplar bog‘langan va ergash gapli qo‘shma gaplar sifatida o‘zaro almashinib qo‘llanishi ham mumkin.

To‘siqsizlik kategoriyasini yoritgan boshqa olimlardan farqli ravishda R.M.Teremova to‘siqsizlik munosabatini (vaziyatini) uch xil daraja asosida ko‘rib chiqadi:

1. Aniq-to‘siqsizlik vaziyati. To‘siqsizlik komponenti aniq (real) voqea-hodisani aks ettirgan to‘siq bo‘lmagan asosni o‘zida saqlaydi. Boshqacha aytganda, to‘siqsizlik kutilgan ish-harakatga nisbatan aniq natijani o‘zida saqlagan holda yuzaga chiqadi. Bunday gaplar ergash gapli qo‘shma gaplarda ko‘proq uchraydi.

2. Taxminiy to‘siqsizlik vaziyati. To‘siqsizlik komponenti to‘siq bo‘lsa ham, natija bermaydigan asosni faraz qilingan voqea-hodisa sifatida, shuningdek, voqea-hodisaning natijasiga qaramay yuz beradigan shart sifatida ko‘rsatadi.

3. Kuchaytirilgan to‘siqsizlik vaziyati. To‘siqsizlik komponenti kuchaytirish semasini, shuningdek, yuqori darajadagi belgi, harakat yoki holatning namoyon bo‘lish ko‘rsatkichini o‘zida saqlaydi.

R.M.Teremovaning fikricha, natijalarni qarama-qarshi qo‘yish orqali ikki tomonlama munosabat – to‘siqsizlik va natija munosabati yuzaga keladi va shu holat yuqoridagi ush xil vaziyatni keltirib chiqaradi.

To‘siqsizlik maydoni haqida so‘z yuritar ekan, T.M.Teremova bo‘lishli va bo‘lishsiz fe’llar yordamida ifodalangan to‘siqsiz ma’noli gaplarni alternativ to‘siqsizlikni ko‘rsatuvchi vositalar nomi ostida baholaydi va ularni shartli ravishda to‘siqsizlik maydonining taxminiy to‘siqsizlik vaziyatiga kiritishni ma’qul ko‘radi. Uning fikricha, taxminiy to‘siqsizlik vaziyatida bo‘lishi mumkin bo‘lgan voqea-hodisaning taxminiyligi ikki martagacha kamayadi. Alternativ to‘siqsizlik ma’nosi ikki qarama-qarshi voqeaning ziddiyatiga asoslanadi: to‘siqsizlikni bildiruvchi qismga va voqea-hodisaning natijasiga [12;70-73].

O.A.Lavrova esa o‘z ishida to‘siqsizlik munosabatining rus adabiy tilidagi semantikasini kommunikativ-funksional yondashuv asosida ko‘rib chiqqan. «To‘siqsizlik, – deydi u, – murakkab semantik-sintaktik kategoriya bo‘lib, u belgi, harakat, holat orasidagi qarama-qarshi (teskari) shartlanganlik munosabati asosida til vositalari yordamida aks etadi. To‘siqsizlik munosabati ikki xil qarama-qarshilik asosiga quriladi: bir tomondan to‘siqsizlikni o‘zida aks ettirgan sabab yoki shart kutilmagan, shartlanmagan natijaga qarama-qarshi qo‘yiladi, boshqa tomondan, bu kutilmagan natija kutilgan (shartlangan) natijaga qarama-qarshi turadi va bir vaqtning o‘zida uni inkor etadi» [4;235].

V.Y.Apresyan o‘z tadqiqot ishida to‘siqsizlik bildiruvchi leksik birliklar, shuningdek, ularning mantiqiy funksiyasi talqiniga e’tibor qaratgan. Shu bilan birga, to‘siqsizlikning sabab, shart, qarama-qarshilik kabi ma’nolar bilan munosabatini ham ko‘rib chiqadi. V.Y.Apresyan ilgari surgan to‘siqsizlik ifodalovchi leksemalar «odatda» va «tabiiy ravishda» fikrlariga tayanib ko‘rsatilgan. «To‘siqsizlik ifodalovchi leksemalar, – deydi u, – so‘zlovchi nuqtayi nazariga ko‘ra, dunyo tuzilishi tamoyillari buzilgan holatlarda qo‘llaniladi» [2;285]. Bundan tashqari, olim o‘z tadqiqot ishida zidlov bog‘lovchilari va to‘siqsizlik ma’nosini ifodalovchi ko‘makchilar haqida hamda ularning munosabati to‘g‘risida ham fikrlarini keltirib o‘tadi.

TILSHUNOSLIK

G.A.Musatova to‘siqsizlik semasi haqida olib borgan ilmiy ishida to‘siqsizlik munosabatining sabab-natija va zid munosabatlar asosiga qurilganini ta’kidlaydi. Kutilgan va aniq natija asosida yuzaga keladigan ma’noviy munosabatlar qarama-qarshiligiga suyanadi va to‘siqsizlik munosabatini keltirib chiqaradi. U o‘z tadqiqot ishi bo‘yicha ma’lumotlar yig‘ish jarayonida to‘siqsizlik semasi ko‘proq ot (уступка, уступительность, соглашательство), sifat (уступительный, уступчивый), fe’l (уступать, уступить, соглашаться, сдаваться, покориться) va ravish (уступив, уступая) doirasiga xos ekanligiga amin bo‘ladi, yordamchi so‘z turkumlaridagi to‘siqsizlik munosabatini olti guruhga bo‘lgan holda ko‘rib chiqadi. Shu bilan birga, G.A.Musatova o‘z ishida R.M.Teremova tasnifiga asoslanib ish ko‘rishni ma’qullaydi va to‘siqsizlik maydonining yadrosi (markazi) sifatida aniq to‘siqsizlik mikromaydoni ko‘rilishini, taxminiy to‘siqsizlik mikromaydoni markazga (ya’ni, yadroga) yaqinroq o‘rin egallashini, kuchaytirilgan to‘siqsizlik mazmunidagi mikromaydon esa periferiyadan joy olishi kerakligini ta’kidlaydi. Har bir mikromaydonni o‘z navbatida markaz va dominantaga bo‘lib guruhlaydi [6;8-12].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

To‘siqsizlik muammosi yuzasidan maydonga kelgan sintaksis va nazariy semantika sohasiga oid ishlarni shartli ravishda ikki guruhga bo‘lish mumkin: birinchi guruh olimlar to‘siqsizlikning asosiy birliklarini sabab-oqibat semantikasi asosida izohlovchilar sifatida, ikkinchi guruh olimlar to‘siqsizlik kategoriyasini shart mazmuni asosida izohlovchilar sifatida farqlanishi mumkin.

Dastlabki guruh olimlarning ishlarida to‘siqsizlik birliklarining ma’nosi kauzallik va inkorning hosilalari sifatida tahlil qilinadi. Ikkinchi guruh olimlarning talqiniga ko‘ra, to‘siqsizlik munosabatlari shart munosabatlari bilan yaqinlashtiriladi.

Shuningdek, to‘siqsizlik munosabatinining o‘ziga xos xususiyatlariga aloqador ishlar sirasiga G.Berzina, N.Bulax, S.Rubsova, N.Chernikova kabi olimlarning tadqiqot ishlarini kiritish mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, jahon tilshunosligida to‘siqsizlik munosabati XX asrdan boshlab lingvistik tushuncha sifatida o‘rganila boshlangan. Bir qancha olimlar tomonidan to‘siqsizlik ma’nosining turli qirralari ochib berilgan, ularning ba’zilari mazkur ma’noni sabab-natija, ba’zilari to‘siqsizlik-shart, yana boshqalari to‘siqsizlik-zidlik kategoriyasi sifatida o‘rgansalar, ba’zilari aniq, taxminiy, kuchaytirilgan to‘siqsizlik vaziyatiga bo‘lib ko‘rsatganlar.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Апресян В.Ю. Уступительность как системаобразующий смысл□□ Вопросы языкознания. 2006, №2. (Apresyan V.Y. Compliance as a system-forming meaning□ Questions of linguistics. 2006, No. 2.)
2. Апресян В.Ю. Уступительность. Механизмы образования и взаимодействия сложных значений в языке – М.: Языки славянской культуры, 2015. (Apresyan V.Y. Compliance. Mechanisms of formation and interaction of complex meanings in language – M.: Languages of Slavic culture, 2015.)
3. Грамматика русского языка. Т.2. Синтаксис. Ч. 2. – М.,1954. (Grammar of the Russian language. Vol. 2. Syntax. Part 2. – M., 1954.)
4. Лаврова О.А. Функционально-семантическое поле уступительности в современном русском литературном языке : Дис... канд. филол. наук : 10.02.01. – СПб., 1997. (Lavrova O.A. The functional and semantic field of compliance in the modern Russian literary language: Dis... Candidate of Philology: 10.02.01. – St. Petersburg, 1997.)
5. Ломоносов М.В.Краткое руководство к красноречию//М.В.Ломоносов. Полн.собр.соч Труды по филологии. Т.7. – М.: – Л. 1952. (Lomonosov M.V. A brief guide to eloquence //M.V.Lomonosov. Complete collection.soch Trudy po philologii. Vol.7. – M.: – L. 1952.)
6. Мусатова Г.А. Семантика уступки: Автореф. канд. дисс. филол наук. – М.: 2008. (Musatova G.A. Semantics of assignment: Abstract of the cand. diss. philol of Sciences. – M.: 2008.)
7. Rasulova A. The studing barrier connection in the world linguistics.. Thematic journal of Education, Vol-7-Issue P 38-42
8. Rasulova A Linguistic Features Of The Conditional Field In Uzbek Language The American Journal of Social Science and Education Innovations (ISSN – 2689-100x) April 22, 2021. Pages: 104-110
9. Rasulova A. As for the units that represent the conditional relationship. ACADEMICIA An International Multidisciplinary Research Journal Vol. 11, Issue 3, March 2021
10. Rasulova A. Learning a concessive attitude at the grammatical level. EPRA international journal of multidisciplinary research (ijmr) 2020 432-434
11. Расулова А. К вопросу выражения уступительных отношений в текстах на узбекском языке. ELMİ İŞ beynəlxalq elmi jurnal. Bakı – 2021. B. 37-40 (Rasulova A. On the question of the expression of concessionary relations in texts in the Uzbek language. ELMİ İŞ beynəlxalq elmi jurnal. Bakı – 2021. B. 37-40)
12. Теремова Р.М. Семантика уступительности и ее выражение в современном русском литературном языке. – Ленинград, 1986. – С. 70-73.(eremova P.M. Semantics of compliance and its expression in the modern Russian literary language. –Leningrad, 1986. – pp. 70-73)